5. Киселева Е.В., Сворцова Л.И. Методические указания по выполнению кейс-заданий. – Вологда, 2017.; Стрекалова Н.Д., Беляков В.Г. Разработка и применение учебных кейсов: практическое руководство / Стрекалова Н.Д., Беляков В.Г. Санкт-Петербургский филиал Нац. Исслед. Ун-та “Высшая школа экономики”. СПб.: отдель оперативной полиграфии НИУ ВШЭ – Санкт – Петербург, 2013.
6. Sodirjonov M. Inson kapitali rivojlanish jarayonlarining etnosotsiologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida). Diss. 2022 у.
7. Келарев В.В., Котова Н.С. Кейс-стади как эффективный метод тренинговых технологий в подготовке управленческих кадров / государственное и муниципальное управление. Ученые записки. 2014 № 3.
8. Umarov A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sotsiologiya fan. dokt. diss. – Toshkent: O'zMU, 2005.

Oddiy shirin bodom (*Amygdalus communis L.*) ning oziq-ovqat va dunyo bozoridagi ahamiyati.

Namozov Jasurbek Mamarajab o‘g‘li - TDAU, O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasi tayanch doktoranti. jasurbek07100@gmail.com

Bodom, Ra’nodoshlar oilasiga mansub daraxt yoki butalar bo‘lib. Dunyoda bo‘ycha 40 ga yaqin turi ma’lum. Osiyo, Shimoliy hamda Markaziy Amerikada, Yevropaning janubida, Zakavkazye, O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. O‘zbekistonda 4 turi mavjud. Ulardan bittasi — oddiy bodom madaniy holda ekiladi, qolganlari yovvoyi holda uchraydi. Oddiy shirin bodom tabiatda 4-10 m balandlikkacha o‘sadi novdalari qizil-jigarrang, barglari to‘plam ko‘rinishida, barglari lansetsimon tor elementik shaklda. Mevalari quruq danak, cho‘zinchoq tuxumsimon 3-4 sm uzunlikda. O‘rtacha gullagandan so‘ng 4-5 oydan keyin pishib etiladi. Bodom ekilgandan so‘ng 3-4 yiliga hosilga kiradi, 10-12 yoshlarida maksimal hosil beradi. 100 yilgacha yashaydi [1, 2].

Y.X. Yuldashovning tajribalaridagi ma’lumotlariga ko‘ra, Oddiy shirin bodom palantatsiyalarini barpo qilshda ko‘chatlarni ekish vaqtin yanvar oyining issiq kunlarida tuproq ekish uchun me’origa yetganda, ekilsa 92% gacha ko‘chatlar tutib ketishi qayd qilingan [3].

Respublikamizda tabiiy bodomzorlarning umumiyligi maydoni 18 ming gettardan ortiq bo‘lib, bu maydonlarni kengaytirish maqsadida Lalmikor yerlarda bodomzorlar barpo qilish va ularni parvarishlash agrotexnikasini ishlab chiqish zarurdir. Bodom urug‘idan, madaniy navlari esa payvand qilish yo‘li bilan ko‘paytiriladi [4]. Bodomning yorug‘likka talabchanligini inobatga olib ko‘chatlarini tekis yerlarda 8x8 m, tog‘ va tog‘ oldi lalmikor yerlarda 6x6 m (janubga qaralgan yonbag‘irlarida 5x5 m) sxemada kuzda yoki erta bahorda ekiladi. Yosh bog‘dagi sug‘orish, o‘g‘itlash, shakl berish kabi agrotexnik tadbirlar o‘tqaziladi [5].

Dunyo oziq-ovqat sanotida, xalq tabobatida va rasmiy meditsinada Oddiy bodom (*Amygdalus communis. L.*) ko‘plab ishlataladi, oddiy bodom yong’oqmeva hisoblanib, jumladan o‘tgan “2021 yilda dunyo bo‘yicha 3 993 998 tonna, bodom yong’og‘i hosili olindi”. Bu ko‘rsatkichlar mintaqalar bo‘yicha “Afrika davlatlari, 8.5% ni yani, 339 017,65 tonna. Amerika 56% ni yani, 2 234 882,56 tonna. Osiyo davlatlari 15.7% ni yani, 629 033,59 tonna. Yevropa davlatlari 12.7% ni yani, 505 459,21 tonna. Okeaniya

esa 7,2% ni yani, 285 605,05 tonna¹ ni bodom yong'oqlarini etishtirgan. Dunyoda 2021 yilda bodom etishtirish bo'yicha Amerika qo'shma shitatlari 2 189 040 tonna hosil bilan etakchilik qilmoqda, keyingi o'rnlarda Ispaniya 365 210 tonna, Australiya 285 605 tonna, Turkiya 178 000 tonna va Marokash 169 255 tanna bodom hosilini etishtirgan bu esa dunyo aholisining oziq-ovaqtga bo'lgan talabini qondirishga katta hissa qo'shadi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda minglab gektar maydonlarada plantatsiya va bog' shakldagi bodomzorlar mavjud. Bu bodomzorlardan Respublikamiz aholisi uchun hamda dunyo aholisi uchun oziq-ovqat sanotida katta ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda 2021 yil davomida 2 738 ga maydondan 27 896 tonna qobiqli bodom etishtirilib, yig'ib olingan va qo'shni Respubliklarga eksport qilindi. Mamlakatimizda 750 000 ga lalmikor maydonlar mavjud bo'lib bu erlarda oddiy bodomning nav va shakllaridan yangi plantatsiyalar barpo qilish mumkin. Yurtimizda oddiy bodom yong'oqmevalari insonlar tomonidan sevib istimol qilinadi. Ammo bodomning qimmatligi va bozordagi me'ori barcha birdek, istimol qilishiga to'sqinlik qiladi.

Bodom tarkibidagi muhim yog'kislotalari tanani tozalashga va "yomon" xolesterin miqdorini pasaytirishga yordam beradi. E, A, C vitaminlari tabiiy antioksidantlardir. Uzoq o'tmishda, elementlar jadvali ma'lum bo'lmasdan avval ham bodomning sog'liqqa ta'siri ijobiligini aniqlashgan, olimlar bodomning shifobaxsh xususiyatlarini amalda sinab ko'rishdi. Avitsennaning ma'lum asarlari bodomning jigar va buyrak kasalliklarini davolashda foydasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bugungi kundagi zamonaviy tibbiyotda bu usulning samaradorligi tasdiqlangan. Buyuk mutafakkir, olim Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bodom yurak qon tomir va ko'z kasalliklarini oldini olishda katta ahamiyatga ega tabiiy darmondorilagini aytib o'tgan. Bodom mag'zining 100 g tarkibida 600 kkal, mavjud bo'lib, o'z salomatligiga befarq bo'lмаган insonlar kunlik istimol extiyojiga 10-15 dana bodom mag'zini qo'shsa yuqoridagi kabi kasalliklarning oldini olgan bo'ladi va organizmning qarish davrini qisqartirib immunitet ko'tarilishiga katta hissa qo'shadi.

Bodom oziq-ovqat sanotida o'z o'rniga ega yong'oqmeva hisoblanadi, aholining bodom istimoliga bo'lgan talabini qondirish uchun, yangi bodom bog'lari va plantatsiyalari barpo etish, mavjud bog'larda uzliksiz agrotexnik tadbirlarni to'g'ri va

¹ <https://www.fao.org/faostat/en/data/QC/Visualize>

tartibli olib borish, seleksiya ishlarnini jadal yo'lga qo'yish kabi muommolar mavjud. Ushbu muammoni hal etishda eng avvalo yuqori sifatli, tashqi omillarga hamda zararkunanda va kasalliklarga bardoshli, serhosil, kech gullovchi bodom nav va shakllaridan ko'chatlar etishtirib doimiy joyiga ekish katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. J.M. Namozov., Y.X. Yuldashov. Oddiy bodom—*Prunus amygdalus* batsch ni yetishtirish agrotexnologiyasi asoslari. Science and innovation, (Special Issue), 2022.
2. A.K. Qayimov., E.T. Berdiyov., H.F. Hamroyev., S.A. Turdiyev. Dendrologiya darslik. "Fan va texnologiyalar" nashroyoti, 2015.
3. Y.X. Yuldashov Dates of planting in the creation and cultivation of industrial plantations of almonds in the ordinary conditions of lowincome plains and hilly rainfed. Актуальные проблемы современной наука № 3, 2016.
4. Y.X. Yuldashov., J.M. Namozov. Technology of construction and care of almond gardens on lands with nsufficient water resources in Uzbekistan // ACADEMICIA. Vol. 10, Issue 12, December 2020.
5. J.M. Namozov., Y.X. Yuldashov. Oddiy bodom – *Prunus amygdalus* Batsch ning bioekologik xususiyatlari. Guliston davlat universiteti axborotnomasi. № 3. 2022.

**Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatidagi axloqiy tarbiyaning o'rni va badiiy
adabiyotning muvaffaqiyati**

**Nuraliyev Husanboy Ulug'bek o'g'li
Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti**

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola orqali ham shoh ham shoir XV-XVI asr badiiy adabiyot klassikasining yorqin namoyondasi Zahiriddin Muhammad Boburning o'z tarjimayi holi bo'lgan "Boburnoma" asaridagi diniy va dunyoviy qarashlar oilaviy muammolar mamlakatda kechgan parokandalik Shayboniyxon bilan bo'lgan to'qnashuvlar Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy faoliyati hamda Bobur tomonidan Shimoliy Hindiston bo'ysundirilib Hindistondagi sultanat barpo etilganligi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar

"Boburnoma", "Voldiya", "Humoyunnomma", "Charx", S.Leyin Poul, "Tarixi Rashidiy"

Barchamizga ma'lumki XV asrda Temuriylar sultanatida yimirilish holati kuzatilib davlat parokandalikka uchrayotganda 1483-yil 14-fevral kuni Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topdi. 1494-yil Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli vafot etdi av sultanat taxtiga 12 yoshli Zahiriddin Muhammad Bobur o'tirdi. U yosh bo'lishiga qaramay sultanat ishlarini ishonchli beklardan Xoji Qozi hamda onasi Qutlug Nigorxonimga tayanib davlatni idora qildi. 1497-yil Bobur Mirzo Samarcand taxtini qo'lga kiritdi. Yosh sarkardaning muvaffaqiyatini ko'rolmagan isyonkor kuchlar 1498-yil Andijon taxtiga Boburning ukasi Jahongir Mirzoni o'tqazishdi. O'rtada isyon bo'lgan jarayonlarga Bobur qalamida mana bunday misralar mavjud edi:

*Charxning men ko 'rmagan javru jafosi qoldimu?
Xasta ko 'nglim ko 'rmagan dard-u balosi qoldimu?
Ey ko 'ngul gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,
Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?*

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABHIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 1, Issue 3, August 2023

Samarqandni olish uchun bo'lgan qiyinchiliklar jang-u jadallar Boburni og`ir ahvolga soldi. Ayni damda u ikki marta otasidan meros Farg`ona taxtini ham qo`ldan boy berdi va ma'lum muddat nochor hayot kechirdi. Yaratganning muruvvatiga umid bog`lab yashadi. Yosh sarkardaning "Xulqingni rost qilg'il har sorig`aki borsang" degan jumlalari aslzodalarga xos ulug`vorlik, saxovatpeshalik, ertangi kunga umidvorlik tuyg`ulari uchun haqiqiy madhiya ro'lini o'ynardi. 1501-yil Shayboniyxon Samarqandni Bobur Mirzodan tortib oldi va ko'plab jang-u jadallardan so'ng Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi faoliyati boshlandi. Kobul xazinasining tagi ko'rinish qolgani bois davlat xarajatlari qolaversa askarlarni boqish uchun mablag` zarur edi. Shu bois Boburning tarafdarlari o'sha paytda Hind yarimorolining Afg`oniston deb atalgan yuqori qismi hozirgi Pokiston chekkasiga teztez yurishlar qilib turardi. Omad ketidan omad kelib, qo'shin Lo'diyalar bilan to'qnashdiva 1520-yil 20-aprilda Bobur Shimoliy Hindistonning poytaxti Dehli taxtini egalladi.

Boburning Markaziy Osiyolik bahodir sarkarda va davlat arbobi sifatida o'z baxti va taxtini yaratish uchun qilgan say harakati o'sha payt uchun zamon taqazosi va tarixiy haqiqatdir. Bobur Hindistonda o'z sultanatiga asos solganda uning atrofida Markaziy Osiyodan unga hamroh bo'lib kelgan amr va beklar, sadoqatli navkarlari o'rab turardi. Ularning yordamida Temuriylarga xos davlat boshqaruvi, tizimi o'rnatildi biroq Bobur o'zi ko'zlagan siyosiy va huquqiy rejalarini amalga oshirishga ulgurmay 1530-yilda yorug` olam bilan xayrlashdi. Boburning fe'l atvori o'z zamondoshlari va tarixchilar tomonidan ko'klarga ko'tarib maxtalardi. Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy" kitobida "*Boburni juda ko'p fazilatlar bezab turar va u behisob olivjanob hislatlarga burkanib mardligi va saxovatpeshaligi hamma hislatlaridan ustun turar edi*" degan.

Eng qizig'i shundaki S.Leyin Poul ya'ni ingliz tarixchisi Zahiriddin Muhammad Boburni "Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi" deb tariflagan.

Haqiqatdan ham Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati, siyosati, diniy va dunyoviy qarashlari butunboshli jamiyatga Bobur tomonidan asos solinib 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi tomonidan bizga qolgan ulkan axloqiy me'ros muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham biz mana shunday ajdodlarga munosib avlod bo'lmog'imiz lozim.

Zahiriddin Muhammad Bobur

Andijon zamini kelib larzaga
Ijod ham mavjlandi misoli bir dur.
Butun bir umrga sevdi chin dildan
Doim Zahiriddin Muhammad Bobur.

Navoiyni ustoz bilgani uchun
Haykali turadi o'ng qo'l tarafda
Vafo qilganlarga qaytadi vafo
Bu ham buyuk imkon, bu ham sharafda.

Hindni obod qilgan kuch qudrat bilan
O'n ikki yoshida tuzgan sultanat
Kobul, Hind devonin tuzmoq shubhasiz
Mardlarcha kurashish haqiqiy san'at

Yosh edi yosh boshi qancha dard ammo
Ijod va boshqaruv yurdi yonma-yon
Bosh egib erkini bermadi also
Qonga-qon jonga jon doim jonga-jon

Haqiqiy hikmatni qoldirib ketdi.
Boburnoma ramzi aslida shudur
Vatanni sevishni o'rgatgan kabi
Xiyobonda mag'rur, turadi Bobur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma 1494-1530-yillar davri.
2. Gafurjon Satimov "Markaziy Osiyo va Hindistonda Boburiylar davri"
3. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar"
4. Zahiriddin Muhammad Bobur g`azallari
5. "Tarixi Rashidiy"

**O'zbek xalqining zabardast farzandi, ko'p qirrali ijodkor
Maqsud Shayxzoda**

Abdullayeva Nurjamal Abibulla qizi
Toshkent davlat transport universiteti
Iqtisodiyot fakulteti AT-4
+998977698118
nurjamalabdullaeva003@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir Maqsud Shayxzodaning xalq qalbidan joy olgan sermahsul ijodi va uning o'zbek milliy madaniyatida tutgan o'rni haqida mushohada yuritiladi. Shoир she'rlarida Ona Vatan, Tinchlik, Samimiylig, Tinchlik, Mehnatsevarlik mavzularining aks etishi uning jozibali misralari orqali tahlil qilinadi. O'zbek adabiyotida shoirning o'rni va nufuzi juda baland ekanligi ko'rsatiladi hamda shoир she'rlariga bugungu kundagi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojning mavjudligi asoslanadi. Shuningdek, shoirning she'riy tragediyasi "Mirzo Ulugbek" asarining badiiy qimmati tahlil etiladi. Asarning o'zbek va jahon adabiyotida tutgan o'rni haqida mulohazalar yuritiladi. Adib ijodining o'zbek adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri real baholanadi. Shoир ijodining o'rganish yuzasidan taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda she'riyati, dramaturgiya, tragediya, badiiy ijod, harbiy lirika, vatanparvarlik, "Mirzo Ulugbek", intim lirika, intellectual lirika.

Annotation. This article discusses the poet Maqsud Shaykhzoda's prolific work in the hearts of the people and his role in the Uzbek national culture. The poet's poems reflect the themes of Motherland, Peace, Sincerity, Peace, and Diligence, which are analyzed through his captivating verses. The role and prestige of the poet in Uzbek literature is very high, and the poet's poems are based on the existence of today's socio-spiritual needs. The artistic value of the poet's poetic tragedy "Mirzo Ulugbek" is also analyzed. The role of the work in Uzbek and world literature is discussed. The impact of the author's work on Uzbek literature is realistic. Suggestions and recommendations are given for the study of the poet's work.

Keywords: Maqsud Shaykhzoda's poetry, drama, tragedy, literature, military lyrics, patriotism, "Mirzo Ulugbek", intimate lyrics, intellectual lyrics.

KIRISH

Yozuvchi va ijodkorlarning o‘zlari tomonidan yozilgan avtobiografiya va esdaliklarida ijtimoiy hayot va ijod o‘rtasidagi mutanosiblik bot-bot takrorlanishi bejiz emas. Zero, bu jarayonda ijodkor nafaqat xalqqa nafi tegadi, balki shu orqali xalq bilan bir qozonda qaynaydi. Xalqning dardini, ichki kechinmalarini, orzu-istiklarini, quvonch-u tashvishlarini his qiladi, tatiydi [Шарафиддинов 1999: 45]. Ayni zamonda xalq tilining betakror jozibasini o‘rganadi. O‘z asarlarida xalqning qadimiy va navqiron, sehrli va betakror so‘zlarini qo‘llash orqali ona tilining jozibasini, tarovatini nomoyish qiladi. Mana shu omillar sabab adabiyotning xalqchilligi, milliyligi, hayotiyligi yanada kuchayaveradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqsud Shayxzoda – faylasuf shoir, mohir dramaturg, zabardast olim, yetuk tarjimon, ehtirosli publisist sifatida XX asr o‘zbek adabyotidan munosib o‘rin egallagan. Ozarbayjon xalq yozuvchisi Mirzo Ibrohimov ham Maqsud Shayxzoda ijodiga yuksak baho bergan. U “Maqsud Shayxzoda zuvalasi she’riyat shu’lasi bilan yo‘g‘rilgan kuychi edi, uning asarlarida buyuk xalqchil idealar, vatanparvarlik tuyg‘ulari, chinakam insoniy hissiyotlar bilan yashagan yoniq qalbning gulduros aks sadosi o‘z tajassumini topgan”, deb yozgan edi. Maqsud Shayxzodaning “Kapitan Gastello”, “Qondoshlik”, “Yo‘q, men o‘lgan emasman”, “Chorak asr” kabi she’rlarida ham urush va tinchlik, o‘lim va hayot, do‘stlik va qahramonlik, yovuzlik vat inch insoniylik haqidagi muhim poetik fikrlar mohirona ifodalangan. “Kapitan Gastello” she’rida shoir jangda mardligini ajoyim namunasini ko‘rsatga uchuvchi GAstello jasoratini chuqr ehtiros va samimiyl ixlos bilan tasvirlab haqiqiy vatanparvar jangchilarining yorqin obrazini yaratdi. Ma’lumki, kapitan Gastello-tarixiy shaxs shoir asarida hayotiy hodisa va aniq tarixiy faktdan ustalik bilan foydalangan Gastelllo jasoratini hikoya qilish orqali hayot va o‘lim haqida chuqr ma’noli ijtimoiy xulosa chiqargan. “Tiz cho‘kib yuz yil yashagandan ko‘ra qahramonlik ko‘rsatib bir kun yashash afzaldir”, - degan fikrni umumiyl ruhiga singdirib, kishilarni Gastellday mard, botir bo‘lishga chqairgan. Maqsud Shayxzoda urush davrida bevosita jang voqealarini tasvirlash bilan chekylanmaydi. U “Bog‘bon”, “Asalchi”, “Yigiraman-ip beraman”, “Olma ” singari sherlarida jangoh ortidagi kishilarning mehnat-u tashvishlarini, o‘ylarini aks ettirdi. Maqsud Shayxzoda urush yillarida yuzaga kelgan aksariyat

she'rlari badiiy mahorat jihatidan ham ibratli. Shoир mumtoz aabiyot an-analari va xalq og'zaki ijodi boyliklaridan foydalanib, harbiy mudofaa mavzularini sodda va ta'sirli qilib yaratish ekan, maqol va aforizmlar darajasiga ko'tarilgan sermazmun va go'zal baytlar to'qiydi. "Ajdar va odam" "Semenchenko, ofarin" she'rlarida folklor qahramonlariga xos afsonaviy xislatlar hozirgi jangchilar faoliyatlariga ibrat sifatida keltiriladi. Shoирning "Vatan", "Bu yer mening vatanim", "Yurtim", "Paxta manzumasi" kabi she'rlarida xalqning bunyodkorlik faoliyati zavq-shavq bilan tasvirlaydi. Bunyodkor inson qadr-qimmatini yuksaklikka ko'taradi. Binobarin shoирning "Mukofotlar muborak", "Hormasin bu qo'llar", "Paxtakor va shoир" singari she'rlari halol mehnat qilayotgan azamat zamondoshlar sha'niga aytigan dilrabo madhiyadek yangraydi. "Mukofotlar muborak" she'rida shoир yorqin va yaxlit sheriya ta'rif-tavsiflar kashf etib, samarqandlik mehnatkash dehqon obrazini mehr-muruvvat bilan gavdalantirgan: Samarqandlik deyildimi- Ahdga vafo degani. Samarqandlik deyildimi- Ishlar bajo degani. Samarqandlik deyildimi- Chin grajdan degani. Samarqandlik deyildimi- Toza vijdon degani. Maqsud Shayxzoda she'riyatida xalqlar do'stligi mavzusiga katta o'rin berilgan. Shoир do'stligi va birodarligini hayot haqiqatiga mos holda qayta-qayta kuylandi. Xalqlar o'rtasidagi do'stlikning azaliy tarixiga va uning buyuk ahamiyatiga doir falsafiy mazmunni betakror misralarda jo'shqin ifodalaydi. Maqsud Shayxzoda do'stlikni kuylash va ulug'lash bilan birga, tinchlikni saqlash, urushning oldini olish to'g'risida ham qator asarlar bitgan. Shoирning "Sevgi va Tinchlik", "Yuksal, tinchlik bayrog'i", "Kabutarlar" singari she'rida urushga nafrat, tinchlik uchun kurash mavzusi jo'shqinlik va ko'tarinkilik bilan yoritilgan. Shoир "Yuksal, tinchlik bayrog'i" she'rida turli badiiy tasvir vositalaridan, xususan notiqlik san'ati imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan. Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" (1957) lirik-falsafiy dostoni o'zbek she'riyatining jiddiy yutug'idir. Har bir shoир o'z davrining farzandi. U o'zi yashagan davr voqeа va hodisalriga hech qachon loqayd qarab tura olmaydi. Ammo u o'z davrining o'tkinchi masalalari girdobida o'ralashib qolmay, abadiy haqiqatlani katta mahorat bilan tasvirlay olsagina, ulug' shoир darajasiga erisha oladi. U shu jarayonda shunday asarlar yaratadiki, bu asarlar o'zi babilan birga insoniyatni ham kelajak sari yetaklab borishi mumkin. XX asrning 20 – 30-yillarida qalam tebratgan shoirlar butunlay boshqa tarixiy sharoitda yashadilar. Ular shu davr bilan hamqadam va

hamnafas bo'lishni o'zlarining nafaqat shoirlilik, balki vatanparvarlik burchlari deb bildilar. "Bahorda yomg'ir" she'rini yozganidan keyin, Shayxzoda ham balki she'rning yaratilishidek sehrli ijodiy jarayon to'g'risida o'ylagandir. Har holda oradan bir necha kun yoki oy o'tgach, u o'zining lirik zamzamalaridan biri - "Misraning tug'ilishi" she'rini yaratgan. Shoirlar o'zbek xalqi tarixit o'tmishining olis davrlariga nazar tashlab, xotin-qizlarning yurt ozodligi yo'lida olib brogan kurashlari va shu kurashlarda ko'rsatgan jasoratlarini beziz tilga olmaydi. Shunday mardona ayollarimizdan biri Zebo G'aniyeva ona vatanni yovuz ushmandan himoya qilgan o'zbek xotin qizlarning munosib vakilasi edi. Uning yuragida o'sha To'marisdek ayollarning ayollarning qoni jo'sh urib turdi. Tarix tuyg'usi bilan yo'g'rigan shoirlar Zebo g'aniyevani ana shunday tarixiy shaxslar va voqelar fonida ko'rdi va uning obrazini ko'tarinki ruhda tasvirladi. Maqsud Shayxzodaning tarixiy-biografik janrda yaratilgan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi XX asr o'zbek adabyoti tarixida alohida o'rinni tutadi. Ozod Sharafiddinov tarifi bilan aytganda, bu ajoyib asar "...uch cho'qining biri..." Mirzo Ulug'bek" tragediyasi hech bir ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalarini bilan bir qatordga qo'ysa bo'ladi... Unda tasvirlangan hayat dramatizmi jihatidan eng mashhur tragedyalardagidan zarracha kam emas, asardagi yetakchi xarakterlar har jihatdan barkamol, qahramonlarning obrazi real va betakror. Maqsud Shayxzoda 1955-yilda bu tragediyani yozishga kirishadi va uni 1960-yilda yozib tugatadi. Asar besh pardadan iborat. Unda XV asardagi tarixiy sharoit butun murakkabligi bilan to'g'ri ko'rsatilgan. Ajdodlarimizning ajoyib qadriyatlari, ezgu an'analari, ilm-fan sohasidagi buyuk kashfiyotlari ulug'lanib, feodal tuzumning fojiali tomonlari ro'yi rost tasvirlangan, zulm va istibdod, xurofiy bid'at keskin qoralangan. Garchi bu kabi vaziyat Yevropada ham kuzatilgan bo'lsa-da, "Mirzo Ulug'bek"day yetuk trageduyaning shakllanishi aynan milliy adabiyotimiz bag'rida sodir bo'ldi.

XULOSA: Maqsud Shayxzodaning she'riy asarlari va tragediyasi o'zbek adabiyotini boyitish bilan birga xalq madaniyma'naviy dunyoqarashining o'sishida ham kata ahamiyatga ega bo'lган. Shu bois uning ijodi yaqin ellik yil ichida qayta-qayta o'rganilmoqda. Asarlari maktab darsliklaridan tushmay kelmoqda. Bularning barchasi shoirlar ijodiga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj natijasida albatta. Shunday ekan, shoirlar ijodini o'rganish va keng targ'ib qilish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumi o'rta ta'lif maktablarining 5-sinfi uchun darslik, Toshkent, "Sharq" 2015 – 176 b.
2. Eshchanova Gulnora. She'riy asar tahlilida nima muhim? Til va adabiyot ta'limi, 2013-yil, 8-son, 33-34 betlar.
3. Hasanov M. So'zmunchoq. Toshkent, "Mashhur-press" 2020. – 128 b.
4. Olimov S. va boshqalar. Adabiyot. Umumi o'rta ta'lif maktablarining 8-sinfi uchun darslik, I qism. Toshkent
"Yangiyo'l Poligraf servis" 2019 – 260 b.
5. Xudoyberdiyev Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2007 y. 304 b.
6. Озод Шарафиддинов. Сардафттар сахифалари. Мақолалар. Хотиралар. Тошкент, "Ёзувчи", 1999. – 224 бет.

MUNDARIJA

1.	"Bilingualism's Multifaceted Impact on Language Acquisition and Sociolinguistic Competence" Khushmurodova Shakhnoza Shaymonkulovna	5-7
2.	MILLIY TERMINLARDA XALQ O'YIN NOMLARINING O'RNI Hamidova Nigora O'rino	8-11
3.	INSON KAPITALI RIVOJLANTIRISH - TA'LIM JARAYONINING MUHIM OMILI SIFATIDA Ixtiyorov Farxod Akmalovich	12-15
4.	Oddiy shirin bodom (Amygdalus communis L.) ning oziq-ovqat va dunyo bozoridagi ahamiyati. Namozov Jasurbek Mamarajab o'g'li	16-18
5.	Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatidagi axloqiy tarbiyaning o'rni va badiiy adabiyotning muvaffaqiyati Nuraliyev Husanboy Ulug'bek o'g'li	19-22
6.	O'zbek xalqining zabardast farzandi, ko'p qirrali ijodkor Maqsud Shayxzoda Abdullahayeva Nurjamal Abibulla qizi	23-27
7.	MUNDARIJA	28